## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** ***mlrd. so‘m***

**23 145,3**

**YAHM o‘sish sur’ati**

**104,7 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**116,4 %**




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-sentabrida Jizzax viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 23 145,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,7 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 116,4 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo‘shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **18 978,5** | **23 145,3** | **104,7** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 18 508,2 | 22 432,5 | 104,6 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 470,3 | 712,8 | 110,1 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **18 508,2** | **22 432,5** | **104,6** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **9 272,4** | **10 828,6** | **105,1** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **3 526,0** | **4 945,3** | **106,6** |
| sanoat | 2 418,1 | 3 712,4 | 107,3 |
| qurilish | 1 107,9 | 1 232,9 | 105,0 |
| **xizmatlar** | **5 709,8** | **6 658,6** | **102,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 099,3 | 1 294,6 | 105,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 684,6 | 798,4 | 107,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 3 925,9 | 4 565,6 | 101,0 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 557,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 % ga yuqoridir.

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*




**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*








# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi**
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,5 | 96,9 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,5 | 3,1 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **50,1** | **48,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **19,1** | **22,0** |
| sanoat | 13,1 | 16,5 |
| qurilish | 6,0 | 5,5 |
| **xizmatlar** | **30,8** | **29,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 5,9 | 5,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 3,7 | 3,6 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 21,2 | 20,3 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




- *Qishloq, o'rmon va baliqchilk xo'jaligi* — **50,1%**
- *Sanoat* — **13,1%**
- *Qurilish* — **6,0%**
- *Xizmatlar* — **30,8%**

**2023- yil**




- *Qishloq, o'rmon va baliqchilk xo'jaligi* — **48,3%**
- *Sanoat* — **16,5%**
- *Qurilish* — **5,5%**
- *Xizmatlar* — **29,7%**

***Yalpi qo'shilgan qiymat***

***Mahsulotlarga sof soliqlar***

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 48,3 % ni, sanoat tarmog'i 16,5 % ni, qurilish 5,5 % ni va xizmatlar sohasi 29,7 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi** *(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 2,5 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 1,6 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,9 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,3 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 0,8 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 1,9 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida – 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 5,0 | 4,7 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3,1 | 5,1 |
| Sanoat | 8,1 | 7,3 |
| Qurilish | 6,9 | 5,0 |
| Xizmatlar | 6,5 | 2,6 |

2023-yilning yanvar-sentabrida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 105,1 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 48,3 %), sanoatda – 107,3 % (16,5 %), qurilishda – 105,0 % (5,5 %), xizmatlar sohasida – 102,6 % ni (29,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 105,4 % (5,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,5 % (3,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,0 % dan (20,3 %) iborat bo‘ldi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

*(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 116,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 143,1 % va xizmatlar sohasida – 113,6 % qayd etildi.









# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*

| | mlrd.so‘m | ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2022- yil | 14 609,5 | 78,9 |
| 2023- yil | 16 638,9 | 74,2 |

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 16 638,9 mlrd. so‘mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 14 609,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 74,2 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 78,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



